

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/30. 12. 2019. Qx.13.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

MAMATQULOV OLIMJON ESHANKULOVICH

**QIZIL-OLA GOLSHTIN VA ANGLER ZOTLI BUQALARNI
MAHSULDORLIGI BO'YICHA TANLASH VA BAHOLASHNING
ILMIY ASOSLARI**

06.02.03 – Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi

**QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
agricultural sciences**

Mamatkulov Olimjon Eshankulovich

**Qizil-ola golshtin va angler zotli buqalarni mahsuldorligi bo‘yicha tanlash va
baholashning ilmiy asoslari**

Маматкулов Олимжон Эшанкулович

**Научные основы отбора и оценки продуктивности быков красно-пестрой
голштинской и англерской породы.....**

Mamatkulov Olimjon Eshankulovich

**Scientific basis for the selection and evaluation of the productivity of bulls of the
Red-and-White Holstein and Angler breed.....**

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

MAMATQULOV OLIMJON ESHANKULOVICH

**QIZIL-OLA GOLSHTIN VA ANGLER ZOTLI BUQALARNI
MAHSULDORLIGI BO‘YICHA TANLASH VA BAHOLASHNING
ILMIY ASOSLARI**

06.02.03 – Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Тошкент – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.3. PhD/Qx977 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb sahifasida (www.tdau.) hamda «Ziyonet» Axborot-ta‘lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Dosmuxamedova Muxayyo Xusnitdinovna
qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Etakchi tashkilot:

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 – raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «__» _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 2-uy. Tel.: (99871) 260-48-00; faks: (99871) 260-38-60; e-mail: tuag-info@edu.uz Toshkent davlat agrar universiteti ma‘muriy binosi, 2-qavat, anjumanlar zali)

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (raqami bilan ro‘yxatga olingan) Manzil: 100140, Toshkent, Universitet ko‘chasi, 2-uy. ToshDAU ARM binosi, 1-qavat. Tel.: (99871) 260-50-43.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2023 yil «__» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

Sh.R.Umarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, q.x.f.d., professor

X.A.Donaev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi,
q.x.f.f.d.(PhD), dotsent

A.Gaziev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, q.-x.f.d., k.i.x.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Hozirgi kunda dunyo bo'yicha chorvachilikni zamonaviy rivojlantirish sharoitlarida sudor qoramolchilik va naslchilik fermer xo'jaliklaridagi mavjud zotlarni hamda qoramol podalarini yanada takomillashtirish dolzarb maqsad qilib qo'yilgan. Yuqori mahsuldor nasldor qoramollar va sifatli mahsulotlar yetishtirish omillariga katta ahamiyat qaratilmoqda. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarning qoramolchilik tarmog'ida «...sermahsul zotlarni yaratish, nasldor mollarni parvarishlash, sifatini yaxshilash va mahsulot yetishtirish texnologiyalarini takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi»¹. Bugungi kunda Gollandiya, Germaniya va Isroil davlatlaridagi golshtin zotli sigirlarning laktatsiya davomidagi sut sog'imi miqdori o'rtacha 8500 - 12000 kilogrammni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich AQSH va Kanadada 9000 - 9700 kilogrammga ko'tarilgan. Buqa beruvchi guruhlardagi sigirlarning sut sog'imi 14000 - 17000 kilogrammga va uning tarkibidagi yog' miqdori 4,5 - 5,0 foizga oshgan.

Respublikamiz sharoitida bugungi kunda qoramolchilik naslchilik bazasini mustahkamlash, nasldor mollarni saqlash, parvarishlash va oziqlantirish sharoitlarini yaxshilash, qoramollar bosh sonini ko'paytirish, nasldorlik va mahsuldorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Nasldor qoramol zotlarini takomillashtirish va ularning naslchilik bazasini mustahkamlashda sinaluvchi qizil-ola golshtin va angler zotli mollarni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Turli genotipdagi nasldor qoramollarni respublikaga keltirish va ulardan samarali foydalanish, issiq iqlim sharoitiga moslashishi, rivojlanishi va mahsuldorlik xususiyatlarini genetik imkoniyatlarini oshirish hamda naslchilik xo'jaliklari sonini va sermahsul podalarni ko'paytirish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda chorvachilikda naslchilik ishlarini takomillashtirishga katta ahamiyat berildi. Jumladan, aholini, ayniqsa qishloq aholisini ish bilan ta'minlash va shu asosda oilalar daromadini oshirishning muhim omili sifatida chorva mollari, eng avvalo qoramol boqayotgan dehqon va fermer xo'jaliklari sonini ko'paytirish uchun zarur huquqiy va iqtisodiy shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 23-martdagi shuningdek, shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarni yanada ko'paytirish, shu asosda qishloq aholisining bandligi va daromadlarini, go'sht-sut mahsulotlarini ishlab chiqarishini oshirish hamda ichki iste'mol bozorining to'ldirilishini ta'minlash maqsadida "...shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarni ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"²gi PQ-308 hamda 842-sonli qarorlari qabul qilindi.

Chorvachilik tarmog'ini jadal rivojlantirish, zamonaviy va innovatsion uslublarni joriy etish, mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish va turlarini kengaytirish, shuningdek, aholini mahalliy sharoitda ishlab chiqarilayotgan sifatli va

¹ <https://www.livisto.ru/ru/livisto/species/cattle/cattle.html>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 23-martdagi "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarni ko'paytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-308-son qarori.

arzon chorva mahsulotlari bilan uzluksiz ta'minlash hamda «...chorvachilikka ixtisoslashgan korxonalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash»³ maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-yanvardagi "Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4576-sonli qarori bilan bir qator zarur choralar bilgilandi.

Mamlakatda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirish hisobiga oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ishlab chiqarishning zamonaviy usullarini keng joriy etish, bu orqali qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish, chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, mazkur sohada zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanishni tashkil etish bo'yicha 2022 – 2026 - yillarga mo'ljallangan keng qamrovli ishlar boshlangan.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Qoramolchilik sohasini rivojlantirish bo'yicha respublikada naslchilik bazasini kengaytirish yaxshilovchi sut yo'nalishidagi zotlarni sof holda urchitish va rayonlashtirilgan qoramol zotlari bilan chatishtirish asosiy usullarda baholashda yangi texnologiyalarni joriy qilishda Sh.A.Akmalxanov, U.N.Nosirov, M.I.Ashirov, A.Kaxarov, B.Abdalniyazov, M.X.Dosmuxamedova, B.A.Qaxramonov, S.Sh.Isomuxamedov, I.Xafizov va boshqa yetuk olimlar va tadqiqotchilar tomonidan diqqatga sazovor ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Shuningdek, nasldorlik va xo'jalik foydali xususiyatlari quyidagi xorijiy olimlar M.M.Lebedev, A.N.Prudov, P.N.Proxorenko, L.K.Ernst, A.I.Bich, A.P.Soldatenkov, N.I.Strekozov, V.I.Seltsov, A.G.Trufanov, M.G.Spivak va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqotlarida o'rganilib, ishlab chiqarishga tavsiya etilgan va ijobiy natijalarga erishilgan.

Hozirgi kunga kelib, etakchi olimlar tomonidan golshtin zotining turli hududiy xillari va angler zotlarining issiq iqlim sharoitiga moslashishi, ularning genotiplari, nasldorlik va mahsuldorlik xususiyatlarining namoyon bo'lishi, genotip-muhitning o'zaro ta'sirida xo'jalik foydali va biologik xususiyatlarining farqlanishi, yaxshi genotiplarning yaxshi fenotiplar uzra namoyon bo'lishi to'g'risidagi izlanishlar olib borilmoqda. Lekin, nasldor qizil-ola golshtin va angler zotlarning genotip sifatlarining namoyon bo'lish darajasi naslchilik fermer xo'jaliklarida import qilingan mollarning nasldorlik, mahsuldorlik va biologik sifatlarining issiq iqlim sharoitida irsiylanish imkoniyatlari, ularning genetik va fenotipik o'zgaruvchanligi, genetik parametrlarining namoyon bo'lishi hamda ularning boshqa mahsuldorlik belgilari bilan bog'lanishi bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 fevraldagi "O'zbekiston respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida" PQ-4576-son qarori.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Toshkent davlat agrar universitetining QX-A-QX-2018-945 raqamli «Naslchilik korxonasi import qilingan yaxshilovchi zotlar buqalarini genotipi, shaxsiy xususiyatlari, sperma mahsuldorligi bo'yicha baholash va tanlash hamda sun'iy urug'lantirish tizimida foydalanish» loyiha asosida bajarilgan (2018 - 2020 - y.y.).

Tadqiqotning maqsadi. Germaniyadan import qilingan qizil-ola golshtin va angler zotli naslli buqalardan sun'iy urug'lantirish tizimida foydalanishda ularning genotipi nasldorligi va kompleks belgilari asosida tanlash va baholashdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari:

import qilingan qizil-ola golshtin va angler zotli nasldor sinaluvchi I va II guruhlardagi buqalarni genotipi, rivoji, eksterer, konstitutsiyasi bo'yicha baholash va tanlash;

zotlar bo'yicha sinaluvchi I va II guruhlardagi buqalarni kompleks seleksion belgilari bo'yicha bonitirovka qilish va klass toifasini aniqlash;

zotlar bo'yicha tanlangan buqalarni saqlash, parvarishlash, texnologik sharoitlarini takomillashtirish;

tanlab olingan buqalarni zoti, yoshi va tirik vazniga qarab oziqlantirish norma va ratsionlarini ishlab chiqish;

tadqiqot natijalarini iqtisodiy samaradorligini baholash.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida Germaniyadan import qilingan qizil-ola golshtin va angler zotli sinaluvchi I va II guruhlardagi buqalari olindi.

Tadqiqotning predmeti bo'lib Germaniyadan import qilingan qizil-ola golshtin va angler zotli naslli buqalardan sun'iy urug'lantirish tizimida foydalanishda ularning genotipi, nasldorligi va kompleks belgilarini o'rganish hisoblandi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlarni bajarishda zootexnikaviy usullar (rivojlanishi, ekstereri, sut sog'imi, yog' miqdori, sut yog'i, sutdorlik koeffitsiyenti, ozuqalar sarfi) bajarildi hamda sinaluvchi I va II guruhlardagi zotli buqalarning naslchilik kartochkalaridan foydalanib genotipi bo'yicha rivojlanishi, eksterer va konstitutsiyasi bo'yicha tanlash, biologik (klinik va gematologik ko'rsatkichlar, issiqqa chidamlilik indeksi) va statistik (biometriya, o'zgaruvchanlik, farqlanishning ishonchlilik darajasi, korrelyatsiya va regressiya koeffitsiyentlari hamda irsiylanishi) usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor mamlakatimizga import qilingan naslli buqalarning zamonaviy saqlash tizimi hamda optimallashtirilgan oziqlantirish texnologik sharoitlarida buqalarning ekstereri, tana tuzilish indeksleri, urug' (sperma) mahsulotini berish xususiyatlari o'rganilib, urug' mahsuldorligining 10-12% ga oshganligi aniqlangan;

ilk bor import qilingan qizil-ola golshtin va angler zotli buqalarning issiqqa chidamlilik indeksi bo'yicha angler zotining qizil-ola golshtin zotiga nisbatan "2" birlikka ustunlik qilishi aniqlangan

hududiy va konstitutsiya tiplarining import qilingan qizil-ola golshtin va angler zotlarning turli nasldorlik, mahsuldorlik va biologik xususiyatlarini qiyosiy o'rganish asosida eksterer ko'rsatkichlarining 2,4 – 22,0 sm darajalarida o'zgarishi aniqlangan;

tanlab olingan buqalarning seleksiya belgilarining genotip-muhit turli sharoitda bog‘lanuvchanlik ko‘rsatkichlari o‘rganilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

import qilingan qizil-ola golshtin va angler zotli buqalarni saqlash tizimi, oziqlantirishning norma ratsionlarini optimallashtirish omillari aniqlangan, issiq iqlim sharoitida buqalarning urug‘ (sperma) mahsuloti ko‘tarilgan aniqlangan;

import qilingan naslli buqalarning issiq iqlim sharoitida issiqqa chidamlilik indeksini baholash asosida angler zotining ustunlik qilishi aniqlangan;

fermer xo‘jaliklari va xo‘jalik korxonalari podalarini naslli buqalar urug‘ini saralash rejasi asosida sun‘iy urug‘lantirish ishlari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotlar innovatsion yangi uslub va ilg‘or texnologiyalardan foydalanilgan holda, laboratoriya, ishlab chiqarish tajribalari bo‘yicha buqalardan urug‘ olish umum qabul qilingan uslublar asosida bajarilganligi, Toshkent davlat agrar universiteti aprobatsiya komissiyalarining ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari hamda birlamchi hujjatlar bo‘yicha ijobiy baholar berilganligi, ilmiy natijalarning nufuzli ilmiy nashrlarda chop etilganligi, barcha tajriba ma‘lumotlarining statistik usulda ishlanganligi, dissertatsiya natijalari ilmiy, amaliy davlat loyihalari asosida olinganligi, ma‘lumotnomalar vakolatli davlat tuzilmasi tomonidan tasdiqlanganligi, olingan natijalarning ishlab chiqarishga tatbiq qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati Germaniyadan import qilingan qizil-ola golshtin va angler zotli buqalarning nasldorlik, mahsuldorligini, turli ekologik omillarga hamda avlodlarning ko‘rsatkichlariga bog‘liqlikda urug‘ mahsuldorligini oshirishi tadqiqotning ilmiy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati import qilingan buqalarni saralashda qizil-ola golshtin va angler zotli buqalarni qizil tusli va qizil-ola hamda angler genotipli sigir bilangina juftlashtirishda saralash nazoratga olinib, buqalar urug‘idan foydalanish sharoitida mollar mahsuldorlik ko‘rsatkichlarini malum darajada oshirish imkoniyatlarini yaratish bilan izohlandi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Import qilingan qizil-ola golshtin va angler zotli buqalar urug‘i (sperma) mahsulotini naslchilik fermer xo‘jaliklarida sermahsul sigirlarni iqlimga moslashtirish bo‘yicha ishlab chiqilgan natijalar asosida:

Germaniyadan import qilingan qizil-ola golshtin va angler zotli buqalar sperma urug‘ mahsuldorligi bo‘yicha “OZNASLCHILIK” davlat korxonasida joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasining 27.12.2022 - y., 02/23-2990-son ma‘lumotnomasi). Natijada korxonada iqtisodiy samaradorligi sof foyda o‘rtacha bir bosh nasldor buqadan 1800 000 - 5900 000 so‘m, rentabellik 14,9 % ga oshgan;

Toshkent viloyati Qibray tumani “Halol baraka nur” naslchilik fermer xo‘jaligida nasldor buqalar sperma mahsuldorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha joriy qilindi (O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasining 27.12.2022 - y., 02/23-2990-son ma‘lumotnomasi). Natijada xo‘jalikda iqtisodiy samaradorlik - bir so‘m xarajatga 1,41 - 2,10 so‘mdan daromad olingan, rentabellik 34% ga ko‘tarilgan. Shu bilan birga birinchi tug‘im yuqori fenotipli

guruhdagi sigirlarda sof foyda bir bosh sigirdan 1465,7 - 1835,3 ming so‘mni tashkil etgan;

Qizil daniya va qizil cho‘l zotli sigirlarning sut mahsuldorligi, ularning yoshi, eksterer va konstitutsiyasi, tirik vazni ko‘rsatkichlariga bog‘liqlik ko‘paytirish ishlari Xorazm viloyatidagi “Yusuf tuyachi” va “Tolib Akmal” naslchilik fermer xo‘jaliklarida joriy qilindi (O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo‘mitasining 27.12.2022 - y., 02/23-2990-son ma‘lumotnomasi). Natijada laktatsiya davomida sog‘ib olingan sut miqdori, xo‘jalik ko‘rsatkichidan 195,9 - 216,8 kg ortiq bo‘lgan. Sutni sotishdan olingan sof foyda bir bosh sigirdan 1090,5 - 1697,5 ming so‘mni, rentabellik darajasi 32,0% ni tashkil etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi dissertatsiya tadqiqoti natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta Respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida, Toshkent davlat agrar universiteti ilmiy texnik kengashida tuzilgan maxsus komissiyalar tomonidan aprobatsiyadan o‘tkazilgan va ijobiy baholangan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 1 ta qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola shulardan, 2 ta xorijiy va 3 ta Respublika jurnallarida nashr etilgan, shuningdek, 2 ta xalqaro va 2 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda maqolalar e‘lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, ishlab chiqarishga tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 110 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda ob‘yekti va predmetlari tavsiflangan, muammoni o‘rganilganlik darajasi, tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga muvofiqligi bayon etilgan, ilmiy yangiliklari, amaliy ahamiyati va ularning aniqlik darajalari, tadqiq qilish hamda aprobatsiya natijalari va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Jahonda sut yo‘nalishidagi yaxshilovchi golshtin zoti uning mahsuldorlik genetik potentsiali**» deb nomlangan birinchi bobida, zamonaviy keng miqyosli seleksiya tizimini va naslchilik ishini joriy etish, podalarni va zotlarni takomillashtirishning ta‘siri, nasldor buqalar (sperma) urug‘idan foydalanish ularning biologik va xo‘jalikda foydalanishda tana va sigirlarning mahsuldorligining ta‘siri, nasldor buqalarning issiq iqlim sharoitiga moslashishi, klinik va gematologik o‘rganishga asoslangan tadqiqot ishlariga oid mahalliy va xorij olimlarning ilmiy izlanishlari natijalari tahlil qilingan. Mavzuga oid bir nechta olimlarning tadqiqot ishlari umumlashtirilib, qoramollarni issiq iqlim sharoitiga moslashish, organizmning tabiiy rezistentligi, yangi muhit sharoitlariga mollarning moslashishi, biologik ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi va mahsuldorlik xususiyatlarining namoyon bo‘lish xarakteri yoritilganligi asoslab berilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot ob'yekti va uslublari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotning ob'yekti, tadqiqot sxemasi va uslublari bayon etilgan. Tadqiqot ob'yekti Toshkent viloyati, Qibray tumani "O'ZNASLCHILIK" davlat korxonasi qilib, korxonadagi qizil-ola golshtin va angler zotli nasldor buqalarda o'tkazilgan va joriy etilgan.

Tadqiqot ishlari zootexniya, biologik va statistik usullarda bajarilgan. Har bir nasldor buqalarni saqlash tizimlari, oziqlantirish me'yori va xillari hisobga olingan. Buqalar ona ajdodlarining mahsuldorlik indeksini $OAMI = (2ON + ONON + OTON) : 4$ formula bo'yicha bajarildi. Bunda, ON - onasining mahsuldorligi; ONON - onasini onasi, ya'ni buvisining mahsuldorligi; OTON - otasining onasi – buvisining mahsuldorligi; OAMI - ona ajdodlar mahsuldorlik indeksi. Ona ajdodlari mahsuldorlik indeksi ularning sermahsul va nasldorligidan dalolat beradi. Buqalar ekstererini baholash 9 va 100 balli shkalada o'tkazildi, klinik ko'rsatkichlar Y.A.Arzumanyan (1957), issiqqa chidamlilik Y.O.Raushenbax (1975) usullarida, gemoglobin Sali bo'yicha, eritrotsitlar va leykotsitlar soni Goryaev kamerasida aniqlandi. Olingan materiallar Y.K.Merkureva (1970) ning biometrik usullarida ishlovdan chiqarildi. Tadqiqotlar natijalarining iqtisodiy samaradorligi ishlab chiqarilgan mahsulot sarflangan xarajatlar va ularni sotishdan olingan daromadlar bo'yicha, sof foyda va rentabellik darajalarini hisoblash usullarida o'rganildi.

Tadqiqot natijalari bo'yicha tahlil usulida tajribaning aniqliligi, seleksion belgilar oralig'idagi farqlanishlikni ishonchli darajasi (P), shuningdek issiqqa chidamlilik indeksi (ICHI) o'rganildi.

Dissertatsiyaning «**Import qilingan buqalarning genotipi, nasldorligi, kompleks belgilarini baholash natijalari**» deb nomlangan uchinchi bobida qizil-ola golshtin va angler zotli nasldor buqalarni parvarishlash O'zbekistonning issiq iqlim sharoitida ayniqsa, Janubiy viloyatlarning turli xo'jaliklarida ko'p yillar davomida urchitib kelinayotgan qizil cho'l zotli va ularning turli chatishtirish, mahsuldorligini oshirish va podalarini takomillashtirishda angler zoti bilan bir qatorda yanada ustuvorlikdagi qizil-ola golshtin zotli sinaluvchi buqalar urug'i bilan urug'lantirish maqsadli hisoblanadi. Tajribadagi buqalarning qizil-ola golshtin va angler zotli sinaluvchi I va II guruhlardagi barcha buqalar belgilangan binoda bog'lab, motsion olishda mahsus qurilma yordamida bajarildi. Buqalar saqlash joylarida, joylashtirilgan oxurlarda oziqlantirildi va har bir buqalar suv ichish novlarida sug'orildi.

Jumladan, qizil-ola golshtin zotli buqa otalari qizlarining sut sog'imi ustuvorligi 1372 kg ga, sut yog'i 63 kg va sut oqsili 49 kg ga teng ($P > 0,99$, $P > 0,99$, $P > 0,99$). Bu ko'rsatkichlar II buqalar guruhida tegishlicha 880 kg, 44 va 31 kg ni tashkil qilgan. I guruh buqalarida sinaluvchi buqalarga nisbatan otalari qizlarining sigirlarning sut sog'imi 492 kg ga (55,9%), sut yog'i 19 kg ga (43,2%), sut oqsili 18 kg ga (58,1%) yuqoriligi kuzatildi ($P > 0,95$, $P > 0,99$, $P > 0,99$). Qizil-ola golshtin zotli sinaluvchi I guruh buqalar onalarining sut sog'imi sinaluvchi II guruh buqalarnikiga nisbatan 662 kg (5,5%), sut yog'i 36 kg (7,6%) va sut oqsili 39 kg (10,0%) ga yuqorigi kuzatildi ($P > 0,999$, $P > 0,999$, $P > 0,999$). Sinaluvchi I guruh buqalar onalarining sut sog'imi 305 kunlik laktatsiya davrida 12239 kg, sutining tarkibidagi yog' miqdori 3,89%, oqsil miqdori 3,28%, sut yog'i 471 kg va sut oqsili 391 kg bo'lsa, sinaluvchi II guruh

buqalarnikida tegishlicha 12901 kg, 3,93%, 3,31%, 507 kg va 430 kg teng ($P>0,999$, $P>0,999$, $P=0,999$).



Untamo laqabli №379532 nomerli qizil-ola golshtin zoti, klassi elita-rekord, yoshi 38 oylik, tirik massasi 920 kg, sinovchi I guruh buqasi



Pepe laqabli №22446925 nomerli qizil-ola golshtin zoti, klassi elita-rekord, yoshi 37 oylik, tirik massasi 830 kg, sinovchi II guruh buqasi

Sinaluvchi I guruh va sinaluvchi II buqalar guruhlaridagi ona ajdodlarining sut sog‘imi 11750 va 12690 kg ga, sutining yog‘lilik darajasi 3,83 va 4,03%, oqsil miqdori 3,30 va 3,38%, sut yog‘i 457 va 511 kg hamda sut oqsili 387 va 425 kg ga teng.

Angler zotli buqalar qizil-ola golshtin zoti bilan bir qatorda sun‘iy urug‘lantirish tizimida foydalanish maqsadlidir. Nazoratga olingan angler zotli buqalarning otalari avlodining sifati bo‘yicha baholashda, uning qizlari bir xil saqlash, parvarishlash va oziqlantirish sharoitida o‘z tengdoshlari (boshqa buqalarning qizlariga) bilan taqqoslangan. Sut sog‘imi sinaluvchi I buqalar guruhida 602 kg ga, sut yog‘ini 39 kg va sut oqsilini 29 kg ga ko‘p bo‘lgan ($R>0,99$, $P>0,99$, $P>0,98$).



“Trouba” laqabli №157776 nomerli angler zotli, klassi elita-rekord, yoshi 43 oy, tirik massasi 840 kg, sinovchi I guruh buqasi




“Ubangi” laqabli №22374294 nomerli angler zotli, klassi elita-rekord, yoshi 37 oy, tirik massasi 780 kg, sinovchi I guruh buqasi

Sinaluvchi buqalar guruhida tegishlicha bu ko‘rsatkichlar 317 kg, 13 va 7 kg ga teng. Ya‘ni bular otalari yaxshilovchi buqalar toifasiga xos bo‘lgan ($P>0,99$, $P>0,98$, $P=0,98$). Buqalarning otalari genotipi bo‘yicha sinaluvchi I guruh va sinaluvchi II buqalar guruhlariga ajratganimizda, ustuvorlik birinchi guruhga berilgan bo‘lib, ularda otalarining qizlari sut sog‘imi sinaluvchi II guruhga nisbatan ustivorligi 285 kg (90%), sut yog‘i bo‘yicha 26 kg (3,3 baravar) va sut oqsilida 22 kg (4,1 baravar) ni tashkil qilgan. Buqalarning otalari barcha seleksion indekslar standart ko‘rsatkichlaridan ustuvorlik qiladi. Bu ayniqsa, sinaluvchi I buqalar guruhida seziladi. Ularda mahsuldorlik indeksi o‘rtacha 122%, nasldorlik - 122, eksterer - 131, urchish


xususiyatlari - 103 va foydalanish muddatlari - 102%. Sinaluvchi II buqalar guruhida ushbu ko'rsatkichlar tegishli - 105, 111, 108, 111 va 103% ga teng. Somatik hujayralar soni ikki guruhda ham standart ko'rsatkichlaridan past bo'lib, 98 va 99 foizni tashkil qilgan.

Import qilingan buqalar onalarining sut mahsuldorligi zotiga xos genetik potensialga ega. Sinaluvchi I guruh va sinaluvchi II guruh buqalar onalarining sut sog'imi o'rtacha 9797 va 10055 kg bo'lishida sutning tarkibidagi yog' va oqsil miqdorlari yuqori (4,62 va 4,73% hamda 3,53 va 3,77%). Sinaluvchi I va II guruhlariga ajratilgan buqalar onalarining o'rtacha bir xil miqdordagi sut bergan va uning tarkibidagi yog' va oqsil miqdorlari ham bir-biriga teng (464 - 465 va 454 - 455 kg). Angler zotli buqalar ona va ota tomon buvilari sermahsul bo'lgan. Sinaluvchi I guruh buqalar ona ajdodlarining sut sog'imi 10351 kg, sut yog'i 497 kg va sut oqsili 378 kg bo'lsa, sinaluvchi II buqalar guruhida tegishli 10085, 459 va 357 kg ga teng. Sut sog'imining ko'tarilishi bilan yog' miqdorining yuqoriligi (4,55 va 4,79%) saqlangan. Shunday holat oqsil miqdorida ham kuzatildi. I guruh buqalar ona ajdodlar ular sut sog'imining tebranishligi 9500 - 11400 kg, yog' miqdoriniki 4,51 - 5,01%, oqsilniki 3,50 - 3,68%. Sut yog'iniki 457 - 545 kg, sut oqsilniki 348 - 406 kg, sinaluvchi II buqalar guruhida ushbu tebranishliklar - 9400 - 10800 kg, 4,26 - 4,89%, 3,42 - 3,68%, 436 - 530 kg, 328 - 378 kg ga teng. Ona ajdodlarining eng yuqori mahsuldorligi bo'yicha Upke va Triston laqabli buqalar alohida ustuvorlikka ega. Demak, nazoratdagi import qilingan buqalar sermahsul va nasldor ona ajdodlaridan kelib chiqqan.



1-rasm. Brekem buqa tizimiga xos buqalar.


Qizil-ola golshtin zotli tizimli buqalar o'ta yuqori nasldorlik va mahsuldorlik xususitlariga ega. Jumladan, Brekam tizimiga xos bo'lgan Upenda, Upendu va Unne laqabli buqalar onalarining sut yog'i 509 - 520 kg ni tashkil etgan. Ular otasi Brekan laqabli buqa onasining sut sog'imi 11558 kg, sut yog'i 586 kg va sut oqsili 461 kg ga teng bo'lgan. Avlodlari bo'yicha baholashda qizlarining tengdoshlariga nisbatan ustuvorligi sut sog'imida 922 kg ga yuqori. Uning otasi yoki buqalarning bobosi Brekem laqabli buqa ham avlodlari sifati bo'yicha baholanib sut sog'imi 764 kg ga ko'p kelgan.



2-rasm. Aikman qarindosh guruhiga xos buqalar.


Ushbu ko'rsatkichlar Aikman qarindosh guruhida ham kuzatiladi. Import qilingan Upke laqabli buqa onasining sut sog'imi 11435 kg bo'lib, sut yog'i 579 kg ga va sut oqsili 427 kg ga tenglashgan. Uning otasi Apoll P laqabli buqa avlodining sifati bo'yicha baholanganda sut sog'imi 1303 kg ga farq qilgan.

Angler zoti bo'yicha turli xil tizim va qarindosh guruhlariga xos bo'lgan buqalar import qilingan. Ular o'z mahsuldorlik yo'nalishi va zotga xos nasldorlik xususiyatlariga ega.



3-rasm. Vr. Balfa laqabli buqa tizimiga xos buqalar.


Ushbu buqa tizimidagi ota ajdodlari avlodining sifati bo'yicha baholanib yaxshilovchi buqalar toifasiga o'tkazilgan. Ular otalari Sabo laqabli buqa avlodlarining sifati bo'yicha sut sog'imi ustunligi 406 kg ga teng. Onasining sut sog'imi 11158 kg, sut yog'i -586 kg va sut oqsili -404 kilogrammni tashkil etgan. Uning o'g'li Uske laqabli buqa ushbu ko'rsatkichlari bo'yicha otasidan qolishmaydi.



4-rasm. Poker qarindosh guruhlariga xos buqalar.


Ushbu buqalar Poker qarindosh guruhiga xos. Ota ajdodi avlodining sifati bo'yicha ijobiy baholanib, yaxshilovchi toifasida foydalanilgan. Uning otasi Pokerning qizlari sut sog'imi tengdoshlarinikidan orqada qolgan (- 247 kg) bo'lsa-da, sut tarkibidagi yog' miqdori hamda oqsil miqdori ustunlik (22) qilgan. Sut oqsilini

ko‘tarish maqsadida foydalanilgan bo‘lishi mumkin. Bu maqsad keyingi olingan avlodlarda o‘z aksini topgan.



5-rasm. A.Lanne qarindosh guruhiga xos buqalar.

Ushbu buqalarning ota ajdodlari o‘ta yuqori nasldorligi bilan xarakterlanadi. Jumladan, otasi Naugat laqabli buqa avlodlarining sifati yuqori bo‘lib, onalarining sut sog‘imi 11791 kg, sut yog‘i 363 kg, sut oqsili 435 kilogrammga teng. O‘ta saryog‘li va seroqsilli sut bergan. Uning o‘g‘li Trouba ham shunday nasldorlik sifatiga ega. Onasining sut sog‘imi 10859 kilogrammni, sut yog‘i 585 kg, sut oqsili 426 kilogrammni tashkil etgan.



6-rasm. R.Ascona qarindosh guruhiga xos buqalar.

Qarindosh guruhini shakllantirgan buqalar, sut yog‘ining yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Ushbu nasldorlik sifati avlodlar nasliga o‘tgan va ular ham seryog‘li sut bergan.

Naslchilik korxonasi tayyorlangan oziqalardan kelib chiqqan holda qishki, bahorgi va yozgi ratsionlar dag‘al oziqalar (beda va tabiiy pichan) va balanslashtirilgan omixta yemlardan tashkil topgan. (1-jadval).

1- jadval

Import qilingan yosh buqalarning qish, bahor va yoz davrida bir xil tipli oziqlantirish ratsioni

| Ko‘rsatkichlar | Buqalarning tirik massasi, kg | | | |
|-------------------------|-------------------------------|-----------|-----------|-----------|
| | 300 - 400 | 401 - 600 | 601 - 700 | 701 - 800 |
| Oziqa moddalari normasi | | | | |
| Oziqa birligi, kg | 9,1 | 9,4 | 9,8 | 10,3 |
| Protein, g | 900 | 1000 | 1200 | 1350 |
| Qand, g | 900 | 1000 | 1200 | 1350 |
| Kaltsiya, g | 58 | 67 | 70 | 73 |
| Fosfor, g | 48 | 57 | 60 | 63 |
| Karotin, mg | 290 | 310 | 330 | 350 |
| Vitamin, D ming m/ed | 8,5 | 9,5 | 11,5 | 12,5 |
| Vitamin E ming m/ed | 290 | 310 | 330 | 350 |

| Ratsion tarkibi | | | | |
|-----------------------------------|-----|-----|------|------|
| Beda pichani, kg | 6 | 6 | 6 | 6 |
| Tabiiy pichan, kg | 4 | 4 | 4 | 4 |
| Balanslashtirilgan omixta yem, kg | 3 | 3 | 4 | 5 |
| Maydalangan jo'xori so'tasi, kg | - | 1 | 2 | 2 |
| Tuxum, dona | - | 1 | 1 | 1 |
| Osh tuzi, g | 80 | 80 | 80 | 80 |
| Jami oziqa birligi | 9,4 | 9,4 | 10,5 | 10,5 |

Dag'al oзуqalar to'yimlilikining pastligi hisobidan to'ldirilganligi sababli ko'p xarajat qilingan. Buqalarga individual tarqatildi va iste'moli nazoratga olindi. Jumladan yoz davrida har bir buqaga har kuni o'rtacha tarqatilgan 4 kg beda pichani, 4 kg tabiiy pichan qoldiqsiz to'liq iste'mol qilgan. Kunlik birinchi oziqlantirishda 3 kg va ikkinchi oziqlantirishda ham 3 kg omixta yem berilgan. 1 dona tuxum ikkinchi oziqlantirishda yem bilan qo'shib oziqlantirildi (2-jadval). 100 gektar yer maydonida 1054 tonna oзуqa birligi ishlab chiqishda har bir gektar yer hisobiga 10,5 t oзуqa birligi to'g'ri keladi.

2-jadval

Oзуqabop ekinlarni asosiy, oraliq va takroriy maydonlarda joylashtirish strukturasi va mo'l hosil yetishtirish programmasi

| Oзуqabop ekinlar | ekinlarni joylashtirish strukturasi, % | yer maydoni, ga | hosildorlik, s/ga | yalpi hosildorligi, tonna | yalpi oзуqa birligi, tonna | ozuqa birligi salmog'i, % |
|-----------------------------------|--|-----------------|-------------------|---------------------------|----------------------------|---------------------------|
| Beda (pichanga) | 30 | 30 | 150 | 450 | 220 | 20,9 |
| Arpa (donga) | 20 | 20 | 35 | 70 | 89 | 8,4 |
| Makkajo'xori (donga) | 20 | 20 | 120 | 240 | 312 | 29,6 |
| Qizil sabzi | 8 | 8 | 200 | 160 | 24 | 2,3 |
| Oзуqa qovog'i | 7 | 7 | 200 | 140 | 21 | 2,0 |
| Oraliq oзуqabop ekinlar (senajga) | 15 | 15 | 350 | 525 | 168 | 16,9 |
| Takroriy makkajo'xori (silosga) | - | 15 | 400 | 600 | 120 | 11,4 |
| Takroriy soya donga | - | 20 | 35 | 70 | 100 | 9,5 |
| Jami: | 100 | 100 | - | - | 1054 | 100 |

Uning 47,5 foizi konsentrat oзуqalarga (makkajo'xori, arpa va soya doni), 26,9 foizi beda pichanga va 31,6 foizi sharali oзуqalarga to'g'ri keladi. Har bir buqa hisobiga 10,5 t oзуqa birligi ishlab chiqildi.

Dissertatsiyaning **“Import qilingan nasldor buqalarning iqlimga moslashish davrida rivojlanishi”** deb nomlangan to'rtinchi bobida Buqalarni parvarishlashda ularni rivojlanishini standart talablarida ta'minlab borish muhim ahamiyatga ega. Har bir zotni ma'lum yoshida belgilangan standart ko'rsatkichlari bo'yicha tirik vaznlari

bor. Sinaluvchi II guruhdagi buqalar o'rtacha 25,5 oylikida 715 kg ga yetgan, o'rtacha kunlik o'sish 700 grammdan tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkichlar I buqalar guruhida tegishli 21,8 oylik, 728 kg, 221 kg va 628 grammga tenglashgan.

Tajriba guruhlari ichida Untamo, Upendu va Unten laqabli buqalar yuqori rivojlanish darajasi bilan xarakterlanadi. Ularning tirik vazni 26 oylikida 730 - 810 kg ga tenglashgan. Kunlik massa o'sishi 722-861 grammga teng. Zotning tirik vazni standartga nisbatan 10 ball bilan baholangan buqalar 5 tani (71%) tashkil qilgan. Upendu buqasining rivojlanishi zot standarti darajasida (5 ball) bo'lsa, Unni laqabli buqa rivojlanishi bo'yicha zot standartidan pasaygan. Guruhdagi buqalarni rivojlanishi yaxshi darajada.

Sinaluvchi II guruhdagi 2 ta buqa sinaluvchi I buqa guruhidagi 5 ta buqaning rivojlanishi bo'yicha ustunlik qilgan. Untamo laqabli buqa rivojlanish darajasi bo'yicha alohida e'tiborga molik. Uning tirik vazni 26 oylikida 810 kg ga yetib ustunlikka erishgan.

Qizil-ola golshtin zotli buqalar guruhida ham tanani rivojlanish darajasi turlicha o'sib, tirik vazni, mutloq va o'rtacha o'sish bilan bir- biridan farqlanadi. Ya'ni, ularni iqlimga moslashish darajasi har xil bo'lib, yuqori, o'rta va past darajani tashkil etdi. Eng yuqori ko'rsatkichiga erishgan Untamo laqabli buqaning mutloq vazn o'sishining o'rtacha kunlik ko'rsatkichi 861 grammga tenglashdi. Barcha buqalarning iqlimga moslashish ko'rsatkichlari o'rta darajaga to'g'ri keldi.

2020 - yili o'rtacha 39 oyga yetib borgan buqalarning tirik vazni 855 kilogrammga tenglashdi. Eng yuqori ko'rsatkich 920 kg ga yetdi. Ushbu guruhda Untamo, Pepe va Upendu laqabli buqalaniki ustuvorlikka ega bo'lib, uning o'rtacha kunlik vazn ulishi 720 - 861 grammga to'g'ri kelgan. Boshqa buqalarning o'sishi o'rtacha bo'lib 550 - 620 grammga teng.

Angler zoti buqalarning individual rivojlanishida farqlanishlik kuzatildi. Sinaluvchi II guruhdagi buqalarning tirik vazni 29 oylikida 660 kg ga va I buqalar guruhida 28,6 oylikida 677 kg ga tenglashgan. Ular 360 kunlik davrdagi o'rtacha kunlik vazn o'sishi tegishli 528 va 497 grammdan to'g'ri kelgan.

2018 – 2019 - yillar davomida rivojlanish bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich (639 gramm o'rtacha kunlik vazn o'sishi) Trouba laqabli buqaga xos. Ubah laqabli buqaniki eng past bo'lib, 314 grammga teng. Sinaluvchi I guruh buqalarda o'rtacha kunlik vazn o'sishi 594 grammni tashkil etgan.

2020 - yilda buqalarni tirik vazni ularni zotiga va iqlimga moslashish xususiyatiga ko'ra shakllandi. 39 oylikida ularning tirik vazni 793 kg ga yetdi. Iqlimga moslashish o'rtacha va past darajada o'tdi.

Buqalarning tana tuzilishi –ekstereri ular tana o'lchovlarini olish usulida ham baholandi. Tana tuzilishini xarakterlaydigan 6 ta tana o'lchovlari ularni 21 - 25 oylikida olindi. Olingan ma'lumotlarni 3-jadvalda keltirilgan.

3- jadval

Qizil-ola golshtin zotli nasldor buqalar tana o'chovlarining iqlimga moslashish davrida o'zgarishi, sm

| Nasldor buqaning laqabi | Tana o'chovlarining 2018 - 2020 - yillar davomida o'zgarishi, sm | | | | | | Tana o'lchovlarini o'sish darajasi (sm, %) | | | | | | | | | | | | Eksterer va konstitutsiya bahosi_ball | |
|-------------------------------------|--|----------------|------------------|--------------------|------------------------|----------------|--|------|----------------|------|------------------|------|--------------------|------|------------------------|------|----------------|----|---------------------------------------|--|
| | yag'rin balandligi | tos balandligi | ko'krak kengligi | ko'krak chuqurligi | tananing qiya uzunligi | pocha aylanasi | yag'rin balandligi | | tos balandligi | | ko'krak kengligi | | ko'krak chuqurligi | | tananing qiya uzunligi | | pocha aylanasi | | | |
| | | | | | | | sm | % | sm | % | sm | % | sm | % | sm | % | sm | % | | |
| Sinaluvchi I guruh buqalari | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| Upendu | 151-162 | 152-161 | 40-54 | 79-88 | 175-191 | 23-26 | 11 | 7,2 | 9 | 5,9 | 14 | 35 | 9 | 11,4 | 16 | 9,1 | 3 | 13 | 88 | |
| Unni | 151-161 | 152-160 | 41-49 | 78-86 | 170-198 | 25-27 | 10 | 6,6 | 8 | 5,3 | 8 | 20 | 8 | 10,3 | 28 | 14,1 | 2 | 8 | 85 | |
| Untamo | 155-165 | 161-166 | 44-54 | 79-87 | 176-203 | 24-27 | 10 | 6,4 | 5 | 3,1 | 10 | 23 | 8 | 10,1 | 27 | 15,3 | 3 | 13 | 88 | |
| Unten | 151-161 | 160-167 | 42-50 | 78-86 | 176-198 | 24-26 | 10 | 6,6 | 7 | 4,4 | 8 | 19 | 8 | 10,3 | 22 | 12,5 | 2 | 8 | 88 | |
| Upenda | 151-162 | 161-166 | 43-52 | 78-87 | 175-192 | 25-27 | 11 | 7,3 | 5 | 3,1 | 9 | 21 | 9 | 11,5 | 17 | 9,7 | 2 | 8 | 87 | |
| O'rtachasi: | 152-162 | 157-164 | 42-52 | 78-87 | 174-196 | 24-27 | 10,4 | 6,8 | 6,8 | 4,4 | 9,8 | 23,6 | 8,4 | 10,7 | 22 | 12,1 | 2,4 | 10 | 87 | |
| Sinaluvchi II guruh buqalari | | | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
| Pepe | 143-161 | 155-166 | 40-48 | 76-86 | 177-203 | 24-27 | 18 | 12,5 | 11 | 7,1 | 8 | 20 | 10 | 13,2 | 26 | 14,6 | 3 | 13 | 88 | |
| Untanu | 141-163 | 150-167 | 40-53 | 70-87 | 172-201 | 23-26 | 22 | 15,6 | 17 | 11,3 | 13 | 32,5 | 17 | 24,2 | 29 | 16,8 | 3 | 13 | 90 | |
| O'rtachasi: | 142-162 | 153-166 | 40-51 | 73-87 | 174-202 | 23-26 | 20 | 14 | 14 | 9,2 | 10,5 | 26,3 | 13,5 | 18,7 | 27,5 | 15,7 | 3 | 13 | 89 | |

Qizil-ola golshtin zotli buqalar tananing yirikligi bilan xarakterlanadi. Oʻrtacha 38 oylik (37 - 41 oylik) 2018 - 2020 - yillarda sinaluvchi I guruhdagi buqalarning yagʻrin balandligi 146 - 154 sm, tos balandligi 154 - 158 sm, koʻkrak kengligi 56 - 59 sm, koʻkrak chuqurligi 77 - 80 sm, tananing qiya uzunligi 172 - 200 sm boʻlsa, sinaluvchi II guruh buqalarniki oʻrtacha 39 oylikda tegishlicha 144 - 153 sm, 155 - 159 sm, 59 - 61 sm, 78 - 83 sm, 174 - 212 sm ni tashkil etadi.

2018 - 2020 - yillar davrida sinaluvchi I buqalar guruhida 38 oylik Untamo laqabli buqa individual baholashda ustunlikka ega. Uning yagʻrin balandligi 155 - 165 sm, tos balandligi 161 - 166, koʻkrak kengligi 44 - 54, koʻkrak chuqurligi 79 - 87, tananing qiya uzunligi 176 - 203 santimetrga teng. Qizil-ola golshtin zotli buqalarning tanani xajmga oʻsishi standart talab darajasida boʻldi. Tana qismlarini rivojlanish tezligi boʻyicha oʻzaro farqlanish kuzatildi.

